Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
Важность качества управления на предприятиях общественного питания.....	842
Абдуллаева Зульфия Иззатовна, Махмудов Суннатжон Абдужаббор Угли	
O'zbekistonda "yashil" moliyalashtirishni rivojlantirish yo'nalishlari	848
Shaislamova Nargiza Qabilovna	
Mahalliy budjetning qo'shimcha daromadlarini shakillantirish yo'nalishlari.....	856
Yuldashev Javohirbek Ikromjon o'g'li	
Davlat moliyaviy nazoratida axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish masalalari	860
Ro'zimatova Nigora Abdullaevna	
Принципы «справедливой стоимости» в мсфо: достоинства и проблемы применения в банках узбекистана	869
Айтмуродова Рушана Бахтиеровна	
Yashil iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirishning nazariy jihatlari	876
Allaberganova Asalxon Kadirovna	
Davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirish tartibini takomillashtirish	880
Xasanov Ruslan Raxmatovich	
Yirik soliq to'lovchilar va ularning investitsiyaviy faolligini investitsiyaviy chegirmalar orqali rag'batlantirish	883
Tohirov Shuhrat Niyoz o'g'li	
MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlashda foydalaniladigan tuzatuvchi buxgalteriya yozuvlar.....	888
Sheraliyev Xayrulla Karimovich	
Qurilish korxonalarida investitsiyalarni boshqarishning xorijiy tajribalari va ularni mamlakatimizda foydalanish yo'llari	894
Karimov Inomjon Ortikbaevich	
Davlat xaridini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy amaliyati va uni iqtisodiyotga ta'siri.....	900
Burxanov G'ofur Baxodirovich	
Влияние технологических инноваций на международные финансовые рынки, а также на финансовый рынок нашего государства.....	904
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
Strategic development of global companies in modern conditions.....	909
Nasimov Bakhtiyor Vasiyevich	
Hududlarda sog'liqni saqlash tizimi asosiy ko'rsatkichlarini noaniq modellashtirish yordamida kompleks baholash.....	914
Ismoilova Difuza Ibodullayevna	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish.....	923
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
Сущность и причины возникновения проблемных кредитов	929
Улмасой Ахмедова Хусан кизи	
The use of digitalization and technologies in updating credit policy.....	934
Otabek Ma'mirjon ogli Azimov	
Финансовое моделирование сценариев развития предприятия с использованием методов многокритериального принятия решений (МКПР).....	938
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich, Yuldosheva Gulnoza Abdinabievna	
Yuqori samarali energiya tejash texnologiyalari va katalizga asoslangan konversiya jarayonlari.....	945
Yusupov Ulug'bek Mamayusupovich	
Kambag'allikni kamaytirish maqsadida aholining ijtimoiy himoyalash mexanizmini takomillashtirish	951
Kasimova Gulyar Axmatovna	



Tijorat banklarida foiz riski muammosi	957
Turdiyev Abdulhakim Kulbazarovich	
Milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishdagi to'siqlarni bartaraf qilish choralari.....	964
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish usullari.....	970
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
O'zbekistonda mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarini takomillashtirish konsepsiyasi: strategik yondashuv.....	974
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
O'zbekiston sanoatida "yashil texnologiyalar" dan foydalanish va barqaror rivojlanish.....	979
Ubaydullaeva Gulchehra Erkabaevna	
Sanoat korxonalarida resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimlarini joriy etishning orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash yo'llari	985
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
Yashil texnologiyalar asosida sanoatni modernizatsiya qilish	990
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
Ta'lim va ilm-fan rivoji – taraqqiyot garovi	995
Jamalova Gulnora Gulomovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida turizm sektorida barqaror bandlikni ta'minlash masalalari.....	1000
To'rabekov Sohijon Sherboy o'g'li	
Yashil energitikani integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy usuli (aqlli tarmoqlar-smart grids)	1007
Karimova Salima Elamonovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida soliqlarni raqamlashtirishni takomillashtirish	1012
Jo'rayev Botir Abdiyevich	
Yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish samaradorligi (TEM ko'rsatkichlar izohi)	1018
Sharifova Nargiza Djurayevna	
Экономическое образование молодёжи основа будущего страны.....	1023
Айматова Фарида, Айтиниязова Наргиза	
Biznes turizmining bugungi kundagi rivojlanish tendensiyasi.....	1028
Yangiyeva Sabrina Ixtiyorovna, Daniyarova Feruza Bahriddinovna	
Особенности кредитования сельскохозяйственных организаций и этапы его развития.....	1032
Ж.Я.Нуриллаев	
Xorijiy tajriba asosida O'zbekiston yashil iqtisodiyotini takomillashtirish yo'llari.....	1039
Xikmatova Husnora Fatxulla qizi	
Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli	1045
Umarov Muzaffar Yusupbayevich, Otamurodov Rasulbek Batirovich, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Atadjanov Kadambay Sapayevich	
Mintaqada raqamli transformatsiya rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati.....	1052
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Tijorat banklaridan olingan kreditni qaytarishda foiz stavkalari ta'sirining tahlili.....	1058
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov.A.V	
Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlari.....	1066
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B taqsimotida chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosidagi strategik hamkorlik	1071
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Мировой финансовый кризис и его влияния на состояние экономики Узбекистана	1076
Раупова Мхлисахон Ибрахимжон кизи	
Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	1087
Hakimov Faxritdin Abdusattorovich	
O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	1093
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	



Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	
Ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	1104
Karimova Komila Daniyarovna	
Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi.....	1111
I.G'.Isroilov	
Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopolov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
"Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi" faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	



SOLIQ STAVKALARINI TABAQALASHTIRISH ASOSIDA SOLIQ TO'LOVCHILAR IQTISODIY FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI

Abduraimova Nigora Abdugapparovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada soliq to'lovchilarning iqtisodiy faoliyatini tartibga solishda tabaqalashtirilgan soliqqa tortishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda fiskal rag'batlantirish, hududiy tengsizlikni kamaytirish va inqirozga qarshi boshqaruv vositasi sifatida soliq yukini individuallashtirish zarurligi asoslab berilgan. O'zbekiston tajribasi asosida milliy iqtisodiy xususiyatlarni hisobga olgan holda soliq stavkalarini tabaqalashtirishga tayangan muvozanatli tartibga solish modelini ishlab chiqish ehtiyoji ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari soliqqa tortish tizimining iqtisodiy faoliyatga ta'sirini chuqurroq tushunishga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: soliqni tartibga solish, soliq stavkalarini tabaqalash, fiskal siyosat, rag'batlantirish, soliq yuki, O'zbekiston, iqtisodiy faoliyat.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of regulating taxpayers' economic activity through differentiated taxation. The study justifies the need for individualizing the tax burden as a tool for fiscal stimulation, regional equalization, and anti-crisis management. Based on the experience of the Republic of Uzbekistan, the importance of developing a balanced model of tax regulation that considers national economic characteristics is emphasized. The research results contribute to a deeper understanding of the impact of the taxation system on economic activity.

Key words: tax regulation, tax rate differentiation, fiscal policy, incentives, tax burden, Uzbekistan, economic activity.

Аннотация: В статье анализируются теоретические основы регулирования экономической деятельности налогоплательщиков посредством дифференцированного налогообложения. Исследование обосновывает необходимость индивидуализации налоговой нагрузки как инструмента фискального стимулирования, выравнивания региональных различий и антикризисного управления. На основе опыта Республики Узбекистан подчеркивается важность разработки сбалансированной модели налогового регулирования с учетом особенностей национальной экономики. Результаты исследования углубляют понимание влияния налоговой системы на экономическую активность.

Ключевые слова: налоговое регулирование, дифференциация налоговых ставок, фискальная политика, стимулы, налоговая нагрузка, Узбекистан, экономическая деятельность.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida raqobatning kuchayishi va noaniqliklarning ortib borishi sharoitida fiskal mexanizmlar barqaror makroiqtisodiy muhitni shakllantirishda muhim omilga aylanmoqda. Ushbu mexanizmlar ichida soliq stavkalarini tabaqalashtirish soliq to'lovchilarning xulq-atvoriga ta'sir etishning moslashuvchan va samarali vositasi sifatida alohida o'rin egallaydi. Tabaqalashtirilgan soliqqa tortishga asoslangan tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish davlatga iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rag'batlantirish, hududlar o'rtasidagi rivojlanish tafovutlarini kamaytirish hamda ijtimoiy adolatni ta'minlash imkonini beradi [1].

Soliqqa tortish tizimining moslashuvchanligini, yuqori samaradorligini va tizimli moslashuvini ta'minlash, uni modernizatsiya qilish va amalga oshirishning zamonaviy, ilmiy asoslangan tashkiliy, iqtisodiy va moliyaviy shakllarini hamda mexanizmlarini joriy etishni talab qiladi.

Zamonaviy iqtisodiy fikr nuqtai nazaridan, tabaqalashtirilgan soliq stavkalari soliqqa tortish tizimining o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga moslashuvchanligini oshiradi va soliq to'lovchilarning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xatti-harakatlarini maqsadga muvofiq ravishda shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u fiskal siyosatning muhim vositasi sifatida barqaror iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliqlarni differentsiallashtirish konsepsiyasi R. Masgrev, J. Stiglits va A. Lafferlarning ishlarida taklif etilgan optimal soliqqa tortish nazariyasiga asoslanadi. Ushbu nazariyada stavkalarini belgilashda talab elastikligi, rentabellik va faoliyat turlarining ijtimoiy ahamiyatini hisobga olish zarurligi ta'kidlanadi [2].

A. Vahobov va A. Jo'raevlar ta'kidlashicha, "Soliq stavkalarini tabaqalashtirish – mintaqaviy iqtisodiyotni, soliq to'lovchilarning turli toifalari daromad darajasini tartibga solish va iqtisodiy o'sish uchun rag'bat yaratishning kam sonli vositalaridan biridir" [3].

R. Masgrev soliqni tabaqalashtirishning strategik jihatini yoritib, soliq tejash imkoniyatlarini aniqlash va baholashda soliq stavkalarini tabaqalashtirish orqali soliq to'lovchilarning faoliyatini muvofiqlashtirish qanday yordam berishi mumkinligini muhokama qiladi [4].

A. Laffer esa soliqni rejalashtirish strategiyalarini, jumladan chegirmalar, kreditlar va imtiyozlarni optimallashtirishni har tomonlama tahlil qilib, soliqlarni tejashni maksimal darajada oshirish va soliq to'lovchilar uchun umumiy soliq majburiyatlarini kamaytirish imkoniyatlarini ta'kidlaydi [5].

"Soliqlar – daromdlarni barqarorlashtiruvchi vosita" nazariyasining asoschisi fransuz iqtisodchisi Ye. Jerarden soliqlar yordamida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmiga ta'sir etish, xususan soliqqa tortishning progressiv shkalasini qo'llash orqali jamiyat a'zolarining mulkiy tengsizligini kamaytirish mumkinligini ta'kidlaydi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada soliq to'lovchilarning iqtisodiy faoliyatini tabaqalashtirilgan soliqqa tortish orqali tartibga solishning kontseptual yondashuvlari qalamga olingan. Tadqiqot maqsadiga erishish uchun adabiyotlar qiyosiy tahlili va farazlarni asoslash usullari, tahlilni qiyoslash, tizimli va mantiqiy yondashuv kabi metodlardan samarali foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy ustuvor yo'nalishlarni o'zgartirish va soliq-byudjet siyosatini modernizatsiya qilish sharoitida soliq vositalari tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy xatti-harakatlarini tartibga solishda asosiy rol o'ynashda davom etmoqda. Barqaror rivojlanish va mutanosib o'sishni ta'minlash sharoitida soliq imtiyozlari va cheklolarining moslashuvchan mexanizmlarini qo'llashga e'tibor kuchayib borayotganini alohida ta'kidlash lozim.

Soliq to'lovchilarga ta'sir ko'rsatishning eng samarali vositalari an'anaviy ravishda tabaqalashtirilgan soliq stavkalari, ularni taqdim etish mezonlari aniq belgilangan soliq imtiyozlari tizimidan foydalanish, shuningdek, byudjetga to'lanadigan majburiy to'lovlarni hisoblashda tuzatish koeffitsientlaridan foydalanish hisoblanadi. Bundan tashqari, soliq to'lovchilarning turli toifalariga individual yondashuvni nazarda tutuvchi maxsus soliq rejimlarini institutsional tarzda joriy etish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda jahon andozalariga mos samarali soliq tizimiga tayanuvchi mustahkam iqtisodiy asos hamda real natijaga asoslangan istiqbolli taraqqiyot yo'nalishlarini belgilash, soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirishga jiddiy ahamiyat qaratilmoqda.

2019-yilda boshlangan soliq islohoti soddaga, shaffof va rag'batlantiruvchi tizimga o'tishni nazarda tutadi [7]. Respublikada soliq stavkalarining tabaqalanishi iqtisodiy faollikni rag'batlantirish va fiskal salohiyatni oshirish mexanizmi sifatida qo'llanilmoqda. Yangi boshlanuvchilar, fermer xo'jaliklari va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni qo'llab-quvvatlash borasida sezilarli natijalarga erishildi.

Soliq yukini pasaytirib borish, soliq to'lovchilar o'rtasida uning nomutanosib taqsimlanishini bartaraf etish, soliq ma'muriyatchiligidagi nomukammalliklar tufayli soliqlarni hisoblash va to'lashdagi muammolarni bartaraf etish, soliq to'lovchilar bilan soliq organlari o'rtasida ierarxik munosabatlarga yo'l qo'ymaslik va ularning "hamkorlikda o'sishi"ni ta'minlash, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga to'sqinlik qiladigan asossiz soliq tekshiruvlarini bartaraf etish hamda soliq maslahati ko'rsatish va samarali nazorat tadbirlariga o'tish vazifalari belgilangan.

Respublikamizda yangi soliq siyosati doirasida ish haqiga soliq yuki 1,5 barobar kamaytirildi. Natijada, rasmiy sektorda ishlayotganlar soni yil davomida 500 mingtaga ko'paydi. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirildi [8].

Bu borada davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev quyidagilarni ta'kidlagan edi: "2019-yildagi yangi soliq siyosati doirasida ish haqiga soliq yuki 1,5 barobar kamaytirilganligi, natijada rasmiy sektorda ishlayotganlar soni yil davomida 500 mingtaga ko'paydi. Islohotlarimiz natijasida o'tgan yili 93 mingta yoki 2018-yilga nisbatan qariyb 2 baravar ko'p yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etildi. Shuningdek, 2020-yildan boshlab yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga asosan, tadbirkorlik subyektlari tomonidan ortiqcha to'langan yoki soliq organi tomonidan



asossiz undirilgan soliq to'lovlari o'z muddatida qaytarilmasa, unga Markaziy bankning asosiy stavkasi bo'yicha budjetdan foiz hisoblagan holda hisobraqamiga qaytarib beriladi" [9].

Shu nuqtai nazardan, 2024-yilda amalga oshirilgan fiskal parametrlarni yangilash amaliyoti e'tiborga loyiq: jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining asosiy elementlari, shu jumladan soliq imtiyozlari summalari va soliqqa tortilmaydigan yillik daromadning maksimal qiymatlari indeksatsiya qilindi.

Mamlakatimizda 2024-yilda davlat budjetiga 199,6 trln so'm soliq tushumlari undirilgan. Bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20,3 foizga ko'pdir. Soliq turlari kesimida umumiy tushumlarning to'rtidan bir qismidan ko'prog'i (52,7 trln so'm) foyda solig'i hissasiga to'g'ri kelgan. Soliq organlari tomonidan 2024-yilda respublika bo'yicha budjetga o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20,3 foizga ko'p tushumlar ta'minlangan [10].

Qat'iy belgilangan daromad solig'i stavkalari ham aniqlashtirilib, aktsiz solig'i, ekologik yig'imlar va tabiiy resurslarni qazib olish uchun olinadigan soliqlar summalari yangilandi.

Aytish joizki, soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimini qo'llash tartibini belgilovchi parametrlar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan yagona soliq stavkalari ham isloh qilindi. Shu bilan birga, namunaviy kapital obyekting (bino yoki inshoot) bir kvadrat metri smeta qiymatining me'yorlari qayta ko'rib chiqildi. Bu esa, o'z navbatida, jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i doirasida shakllanadigan soliq yukiga ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, soliq siyosatining asosiy elementlarini tizimli moslashtirish iqtisodiy faollikni, investitsion jozibadorlikni va soliq yukini mutanosib ravishda qayta taqsimlashni ta'minlagan holda, ichki va tashqi chaqiriqlarga samarali javob bera oladigan moslashuvchan fiskal makonni shakllantirish istagini namoyon etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliq stavkalarini differentsiallashtirish bir vaqtning o'zida iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va fiskal barqarorlikni ta'minlashga qodir bo'lgan soliq xatti-harakatlarini muvofiqlashtirishning samarali vositasi sifatida qaralishi mumkin. Biroq uning samaradorligi bevosita soliq ma'muriyatchiligi sifatiga, soliq tizimini raqamlashtirish darajasiga hamda soliqning fiskal va rag'batlantirish funksiyalari o'rtasidagi muvozanatni saqlashga bog'liqdir. Bunday vositalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish har tomonlama tahlil qilishni, fanlararo yondashuvni va milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi.

Shunday qilib, soliq stavkalarini differentsiallashtirish asosida soliq to'lovchilarning iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari zamonaviy fiskal arxitekturaning ajralmas qismi hisoblanadi. Ulardan foydalanish davlatga bir vaqtning o'zida budjet, ijtimoiy va investitsiya maqsadlariga erishish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli¹ Farmoni doirasida ijtimoiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiyotni raqamlashtirishga qaratilgan tabaqalashtirilgan soliq siyosatini yanada takomillashtirish rejalashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi uchun mazkur mexanizmlarni yanada rivojlantirish institutsional barqarorlikni, soliq ma'muriyatchiligining shaffofligini va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida soliq madaniyatini oshirishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sanakulova B., Badalov Sh. Soliq yuki: aniqlash va optimallashtirish yo'nalishlari. Monografiya. – T.: 2015. – 264 b.
2. Дубкова В.Б. Об особенностях налогообложения прибыли добывающих предприятий в условиях дифференцированного подхода // Известия Уральского государственного экономического университета. 2014. № 3. С. 32–40.
3. A. Vahobov, A. Jo'rayev. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik / Hammualliflar: A. Vahobov, A. Jo'rayev. – T.: "Sharq" nashriyoti, 2009. – 400 b.
4. Musgrave R.A., Musgrave P.B. Public Finance in Theory and Practice. McGraw-Hill, 1989.
5. Laffer A. Economics of the Public Sector. W.W. Norton & Company, 2000.
6. Petrova I.A. Differentsiatsiya nalogovogo bremeni v sovremennoy ekonomike // Finansy i biznes. – 2023. – № 4. – S. 45–52.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5837-sonli farmoni, 2019-yil 26-sentabr.
8. Isayev F.I. Soliq yukini kamaytirishda soliq tahlilining ta'siriga oid nazariy mulohazalar. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 2/2023, mart–aprel (№ 00064).
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 25.01.2020. <https://pm.gov.uz/oz/lists/view/679>
10. 2024-yil davlat budjeti. Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalarining 2024-yil birinchi yarim yillik hisoboti. <https://api.mf.uz>

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabr "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
